O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI

SAMARAQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ BD-60510100
2023 yil “5” 10

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
R.I.Xalmuradov
2023 yil “ ” _____

ODAM ANATOMIYASI
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	500000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta’lim sohasi:	510000 – Biologik va turdosh fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60510100 – Biologiya (turlar bo‘yicha)

Samaraqand – 2023

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
OANB106OA1405	2023-2024	2	5

Fan/modul turi	Ta’lim tili	Haftadagi dars soatlari
Majburiy	O‘zbek	6 soat

1.	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami (soat)
	Odam anatomiyasi	74	76	150

2.

I. Fanning mazmuni (FM)

Fanni o‘qitishdan maqsad - odam tanasining tuzilishi, rivojlanishi, a’zolari va tizimlarining funksiyalarini bir-biriga bog‘lab o‘rganish. Odam anatomiyasi fan tizimlari bo‘yicha etuk ma’lumotlarni berish bilan birga har bir tizimga xos anatomik tuzilishlarini funksiyaga bog‘lab o‘rgatish. Barcha tizimlari bo‘yicha faqat nazariy bilimlar beribgina qolmasdan amaliy darslarda kafedrada mavjud adabiyotlar, atlaslar, mulyaj, skelet va uni suyaklaridan foydalanib amaliyot darslarini ham olib boriladi.

Fanning vazifasi – odam organizmi tuzilishining murakkabligi, mehnatga layoqatliligi, hayvonlar organizmi tuzilishidan tubdan farq qilishi. Ana shu tuzilish, rivojlanish qonuniyatlarini uning evolyusion taraqqiyot qonunlari - filogeneziga (phylon-avlod, genesis-taraqqiyot) taqqoslangan holda o’rganish, organizmi a’zolarining tuzilishi ularni vazifalariga bog’liq holda shaklanib borishini o’rganishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg`ulotlari)

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Kirish. Odam anatomiyasi fanining predmeti maksadi va vazifalari. Fanning qisqacha rivojlanish tarixi. Odam anatomiyasi va uni o‘rganishdagi asosiy maqsadi. Anatomiyaning boshqa fanlar (fiziologiya, gistologiya, embriologiya, qiyosiy anatomiya paleontologiya va antropologiya) bilan uzviy bog‘liqligi. Zamonaviy o‘rganish usullari. Qadimiy anatomiyaning qisqacha rivojlanish ta’rixi (Alkmeon, Krotonskiy, Gippokrat, Gerofil). O‘rta asrlarda anatomiyaning rivojlanishiga katta xissa qushgan O‘rta osiyo olimi Abu Ali Ibn Sino. Fransiya va Italiya olimlari. Plastik anatomiyaga birinchi bo‘lib o‘z xissasini qushlardan Leonardo da Vinchi. Anatomiyani fanining asoschilardan Andrey Vezaliy.

2-mavzu. Skelet va uning boylamlari haqida ta’limot.

Skelet – tayanch, harakat va ximoya vazifalarini bijarish bilan bir qatorda, mineral tuzlar deposi ham hisoblanadi. Suyaklarning kimyoviy tarkibi, suyak tuzilishining mexanik prinsiplari. Vazifalariga qarab umurtqalarning tuzilishidagi farqlar. Nafas olish jarayonida kukrak qafasining harakati. Qo‘l va oyoqning erkin qismidagi suyaklar, ularning o‘ziga xos qiyosiy tuzilishlari. Bosh skeleti yoki kalla suyaklari va ulardan har birining o‘ziga

xos vazifalari. Nevrokranium va splanxnokranium haqida tushuncha. Kalla hamda yuz suyaklarining tuzilishi, yangi tug'ilgan bola kalla suyaklarining tuzilishi, kalla skeletining tuzilishi haqida irkiy «nazariya»ga tankid.

3-mavzu. Bo'g'imlar va ularning turlari.

Bir o'qli, ikki o'qli, ko'p o'qli, yassi, hamkor bo'g'imlar haqida tushuncha.Suyaklar birikishining xillari. Sindesmoz, sinxondroz va sinostoz birikish. Xomilaning rivojlanishida suyak to'qimasining shakllanishi va o'sishi to'g'risida ta'limotlar. Suyak segmenti hakida tushuncha.

4-mavzu.Tana skeleti: umurtqa pog'anasi skeleti, ko`krak qafasi.

Umurtqa pog'anasi suyaklarning tuzilishi va birikishi. Umurtqa pog'onaning bo'limlari. Bo'yin, ko'krak, bel, dumg'aza va dum umurtqalarining ta'rifi. Bolalar umurtqa pog'onasining tuzilishi xususiyatlari. Umurtqa pog'onasining bir butunligi. Ko'krak qafasi skeleti. Qovurg'alar va to'shning tuzilishi, ularning o'zaro birikishi. Umurtqalar pog'onasi va ko'krak qafasining bir butunligi. Gavda skeletining yoshga qarab o'zgarishi.

5-mavzu. Qo'lning erkin turgan bo'limidagi suyaklar.

Ularning o'zaro birikishi. Qo'lning erkin suyaklariga yuqoridan pastga qarab elka suyagi, o'rta qismida tirsak va bilak suyaklari, oxirgi qismida esa qo'lning panja suyaklariga bo'linishi. Uzun suyaklar. Qo'lning erkin suyaklarining bo'g'imlari.

6-mavzu.Oyoqning erkin turgan bo'limidagi suyaklar.

Oyoq kamari suyaklari va ularning birikishi. Oyoq suyaklari qismlarga bo'linishi. Qismlarning o'z navbatida bir nechta suyaklardan tashkil topishi. Odam tanasining harakati hamda tayanch vazifasini o'tashi. Bularning anatomik tuzilishi, muxim vazifalarni bajarishga moslashgan belgilari.

7-mavzu Bosh skeleti. Kalla suyaklari: kallaning ensa, peshona, tepa, chakka, ponasimon va g'alvirsimon suyaklari. Bosh skeleti har xil tuzilishiga ega bo'lgan bir nechta juft toq suyaklarning yig'indisidan tashkil topganligi. Suyaklar soni umurtqali xayvonlarnikiga nisbatan kam. Ayrimlari bir-birlari bilan birlashib murakkab bosh suyaklariga aylanishi. Odam bosh skeleti, ayniqsa miya qismining tuzilishi. Kallaning yuz suyaklari. Yuqori va pastki jag' suyaklari, tanglay, burun, ko'z yosh, til osti suyaklari. Yuz bo'limining suyaklari yuz suyaklarining asosi, hamda ovqat xazm qilish va nafas olish tizimlarining boshlang'ich qismlarini tashkil etishi. Yuz suyaklari uning asosi va shaklini tashkil etishda yuqorigi va pastki jag', tanglay, burun, dimog', yonoq va til osti suyaklari kabi suyaklar ham ishtirok etishi.

8-mavzu. Muskullar. Gavdaning yuza va chuqur joylashgan muskullari bosh, bo'yin va yuz (mimika) muskullari. Muskullar to'g'risida umumiy ma'lumot. Muskullarning vazifasi va tuzilishi. Muskullarning takomillashishi, makro va mikroskopik tuzilishi. YOrdamchi aparatlari, birikishi. Morfo-fiziologik xususiyatlari. Muskullarning evolyusion taraqqiyoti haqida qisqacha ma'lumot.

9-mavzu. Ovqat hazm qilish a'zolari. Hazm qilish a'zolarining tuzilishi, filogenez va ontogenezda rivojlanishi. Seroz va shilliq pardalar haqida

tushuncha. Hazm nayi devorining mikroskopik tuzilishi, har xil qismlaridagi o'xshashlik va farqlar.

10-mavzu Nafas olish tizimi. Nafas olish organlarining asosiy ontogenetik xususiyatlari. Burun bo'shlig'i. Xiqildoq va uning tuzilishi. Traxeya. Bronxlar va Bronx-larning shaklanishi. O'pkalar, Plevra. Nafas yo'llari devorining tuzilishi. nafas olish mexanizmi, nafas olish akti va o'pkalar evolyusiyasi to'g'risida tushuncha. Umurtqa pog'onasi bilan ko'krak qafasi orasidagi bo'shliq..

11-mavzu. Siydik va tanosil a'zolari. Buyrak. Erkaklar va ayollar jinsiy organlari: urug'don, tuxumdon, ortig'i, prostata bezi, bachadon, tashqi tanosil a'zolari (qin). Siydik a'zolari quyidagi qismlardan tashkil topgan. 1. Buyraklar, 2. Siydik yo'llari, 3. Siydik pufagi, 4. Siydik chiqaruv kanalchasi.

12-mavzu Qon tomirlar tizimi. Tomirlar sistemasi haqida ta'limot. Yurak va uning tuzilishi. Qon aylanishining kichik doirasini arteriya va venalari. Asosni yurak arteriya va vena tomirlar. Tomirlar sistemasi haqida ta'limot (angiologiya). Tomirlar sistemasi to'g'risida umumiy obzor. Qon aylanishining odam hayotidagi ahamiyati. Yurak va qon tomirlari ontogenezi haqida tushuncha.

13-mavzu. Nerv sistemasi haqida ta'limot. Umumiy tushunchalar. Bosh va orqa miya nerv sistemasi. Nerv sistemasi va tuzilishining bir butunligi haqida. I.M.Sechenov va I.P.Pavlov ta'limotlari. Nerv sistemasining morfologik va gistoloik asosini tashkil qiluvchi elementlar. Orqa miya, uning tashqi va ichki tuzilishi, joylashgan joyi, vazifasi va taraqqiyoti. Bosh miya – umumiy ma'lumotlar, taraqqiyoti joylashgan joyi. Bosh miyaning qismlarga bo'linishi, ulurning vazifasi va miya qorinchalari tuzilishi.

14-mavzu. Sezgi a'zolari (esteziologiya). Sezgi a'zolari yoki analizatorlar haqida umumiy tushuncha. Sezgi a'zolari haqida ma'lumotlar, sensor sistemalar, ularning retseptorlari. Sezgi a'zolari filogenezi va ontogenezi. Eshitish va muvozanat a'zolari, ularning ontogenezi. Tashqi, o'rta va ichki quloqlar ularning tuzilishi. Ko'rish a'zosi yoki ko'rish analizatorlari.

III. Amaliy (yoki seminar) mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliyot mavzulari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. **Tadqiqot usullari va qisqacha tarixi**. Anatomiya fanining boshqa fanlar bilan bog'liq holda rivojlanishi. Odam anatomiyasi va uni o'rganishdagi asosiy maqsadi
2. **Harakat organlar sistemasi. Skelet va uning boylamlari haqida ta'limot** Skelet – tayanch, harakat va ximoya vazifalarini bijarish bilan bir qatorda, mineral tuzlar deposi ham hisoblanadi. Suyaklarning kimyoviy tarkibi, suyak tuzilishining mexanik prinsiplari
3. **Bo'g'imlar va ularning turlari.** Bir o'qli, ikki o'qli, ko'p o'qli, yassi, hamkor bo'g'imlar haqida tushuncha.Suyaklar birikishining xillari. Sindesmoz, sinxondroz va sinostoz birikish.
4. **Tana skeleti: umurtqa pog'anasi skeleti.** Umurtqa pog'anasi suyaklarning tuzilishi va birikishi. Umurtqa pog'onaning bo'limlari. Bo'yin, ko'krak, bel, dumg'aza va dum umurtqalarining ta'rifi.

5. **Ko`krak qafasi.** Ko'krak qafasi skeleti. Qovurg'alar va to'shning tuzilishi, ularning o'zaro birikishi.
6. **Qo'lning erkin turgan bo'limidagi suyaklar.** Qo'lning erkin suyaklariga yuqoridan pastga qarab elka suyagi, o'rta qismida tirsak va bilak suyaklari, oxirgi qismida esa qo'lning panja suyaklariga bo'linishi.
7. **Oyoqning erkin turgan bo'limidagi suyaklar.** Oyoq kamari suyaklari va ularning birikishi. Oyoq suyaklari qismlarga bo'linishi. Qismlarning o'z navbatida bir nechta suyaklardan tashkil topishi.
8. **Bosh skeleti.** Kalla suyaklari: kallaning ensa, peshona, tepa, chakka, ponasimon va g'alvirsimon suyaklari. Bosh skeleti har xil tuzilishiga ega bo'lgan bir nechta juft toq suyaklarning yig'indisidan tashkil topganligi.
9. **Kallaning yuz suyaklari.** Yuqori va pastki jag' suyaklari, tanglay, burun, ko'z yosh, til osti suyaklari. Yuz bo'limining suyaklari yuz suyaklarining asosi, hamda ovqat xazm qilish va nafas olish tizimlarining boshlang'ich qismlarini tashkil etishi
10. **Muskullar tizimi.** Sinergist va ontogenistlar. Gavda muskullari, ko'krak, qorin va bo'yin muskullari. Muskullarning mikroskopik tuzilishi.
11. **Ichki a'zolar tizimi. Ovqat hazm qilish tizimi.** Og'iz bo'shlig'i, til, so'lak bezlari, tishlarning tuzilishi, formulasi, qizilo'ngach, me'da, ingichka va yo'g'on ichaklar.
12. **Ovqat hazm qilish sistemasi bezlari.** Jigar, o't pufagi va meda osti bezi ularning anatomik joylashgan joylari, morfologik tuzilishi va vazifalari
13. **Nafas olish a'zolari tizimi.** Nafas olish organlarining anatomiyasi va vazifasi. Burun bo'shlig'i, kekirdak, traxeya va o'pkalar anatomiyasi va vazifalari.
14. **Ayiruv a'zolari tizimi.** Buyrak, siydik yo`li, siydik qopining anotomik tuzilishi. Nefronning nozik tuzilishi, uning vazifasi.
15. **Jinsiy a'zolari tizimi.** Jinsiy hujayralar, morfologiyasi va vazifalari. Urug'don va tuxumdonlarning anatomik joylashgan joylari.
16. **Tashqi va ichki sekretsiya bezlari.** Tashqi va Ichki sekretsiya bezlari tuzilishi, Klassifikatsiyasi. Ularning gormonlari. Sekretsiya tiplari.
17. **Yurak va qon tomirlar tizimi.** Yurakning anatomik joylashgan joyi chegarasi, tuzilishi, kameralari va klapanlari. Kichik qon aylanish doirasining tomirlari.
18. **Katta qon aylanish tizimi.** Aortaning tuzilishi, uning qismlari. Ichki oraganlarga tarqaluvchi tomirlar. Qo'l, oyoq teri va muskullarga tarqaladigan arteriya tomirlari.
19. **Nerv tizimi. Orqa miya.** Orqa miyaning tashqi va ichki tuzilishi, sistemalari. Orqa miyani o'rovchi pardalar. Orqa miyaning rivojlanishi. Orqa miya ildizlari. Orqa miyanervlarining tarqalishi va chiqish joylari. Orqa miya nervlari shoxlari va bo'linish joylari. Orqa va bosh miyaning o'tkazuv yo'llari va ularning sxemasi. Periferik nerv sistemasi. Bosh

	miya nervlari 12 juft bosh miya nervlari. **20. Bosh miya.** Bosh miya bo'limlari: uzunchoq miya, Voroliev ko'prigi, miyacha, o'rta miya, oraliq miya, ularning morfologiyasi, ahamiyati va tavsifi. To'rt tepalik haqida tushuncha. Oq va kul rang moddalarning joylanishi. Bosh miyaning nerv markazlari va o'tkazuvchi yo'llari. Katta yarim sharlarning bo'limlari, egatlari va burmalari. **21. Sezgi a'zolari.** Teri analizatori, qon va nerv tomirlari. Eshitish organlari, tashqi, o'rta va ichki quloq. Ko'rish organi. **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar** **Mustaqil ta`lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:** 1. Kirish. Odam anatomiyasi va antropologiya asoslari fanining maqsadi va vazifalari. Fanining qisqacha rivojlanish tarixi. 2. Skelet va uning boylamlari haqida ta'limot 3. Umurtqa pog`onasi, ko`krak qafasi suyaklari. 4. Qo'lning erkin turgan bo'limidagi suyaklar 5. Oyoqning erkin turgan bo'limidagi suyaklar. Oyoq kamari suyaklari va ularning birikishi 6. Bosh skeleti. Kalla suyaklari: kallaning ensa, peshona, tepa, chakka, ponasimon va g'alvirsimon suyaklari 7. Kallaning yuz suyaklari 8. Muskullar: gavdaning yuza va chuqur joylashgan muskullari bosh, bo'yin va yuz (mimika) muskullari 9. Ovqat hazm qilish a'zolari 10.Nafas olish sistemasi. 11.Siydik va tanosil a'zolari 12.Tomirlar sistemasi haqida ta'limot.. Arteriya, vena va kapilyarlarning tuzilishi. Qon aylanish doiralari. 13.Nerv tizimi. Nerv sistemasi haqida ta'limot. 14.Eshitish, ko'rish va sezgi a'zolari
3	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • Talabalar odam organizmining shaklini, tuzilishini, uning rivojlanish jarayonini haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** • Odam anatomiyasi fanini o'rganish jarayonida umumiy biologik dunyoo'arashni kengaytirish bilan birga kelajakda kasbiy amaliyotda zarur bo'lgan ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;*** • Odam organizmining tuzilishi, organlarning vazifasi to'g'risidagi bilimlarni hayotda qo'llay bilish ***malakasiga ega bo'lishi kerak.***
4	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar;

	• taqdimotlar, testlar, og'zaki so'rov-suhbat va boshqalar.
5	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6	**Asosiy adabiyotlar:** 1. Қодиров Э.Қ. Одам анатомияси. Лотин.Тошкент. "Университет". 2007. 2. Қодиров Э.Қ. Одам анатомияси. Chinor ENK; Тошкент, 2003. 3. Ахмедов Н.К. АТЛАС. Одам анатомияси. Тошкент. «Тиббиёт нашри» 1996. 4. Привес М. Г., Асенков Н. К., Бушкович В. И., Анатомия человека .а. Высшая школа. 1985 **Qo'shimcha adabiyotlar** 1. Курепина М. М., Воккен Г.Г. Анатомия человека. Атлас иллюстрация. М., «Просвешение» 1979. 2. Привес М.Г., Асенков Н.К., Бушкович В.И. Анатомия человека. М., Высшая школа. 1985. 3. Худойбердиев Р.Э., Ахмедов Н.К. ва бошқалар. Одам анатомияси. Тошкент. Ибн Сино. 1993. 4. Ахмедов Н.К. Одам анатомияси. Тошкент. Медицина.1987 5. Колесников Р.В. Одам анатомияси. 1964 йилги русча нашрдан таржима. Тошкент. Ўқитувчи. 1970. **Axborot manbalari (saytlar):** 1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali. 2. **www.ziyonet.uz.** **www.pedagog.uz.**
7	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining 202__ yil ___ _____dagi ___-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8	**Fan/modul uchun mas'ullar**: A.R.Jabborov - SamDU, "Zoologiya" kafedrasi mudiri, biologiya fanlari doktori professor. A.U.Mamashukurov – SamDU, "Zoologiya" kafedrasi assistenti, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). R.S.Urazova - SamDU, "Zoologiya" kafedrasi dosenti, biologiya fanlari nomzodi.
9	**Taqrizchilar:** S.E.Fundukchiyev - SamDU, "Zoologiya" kafedrasi dosenti, biologiya fanlari nomzodi. Z.I.Izzatullayev – SamDU, "Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi" kafedrasi professori, biologiya fanlari doktori.

Zoologiya kafedrasi mudiri: prof. A.R.Jabborov

Institut direktori: prof. S.X. O' roqov

SamDU o'quv-uslubiy
boshqarma boshlig`i: Sh.A. Muranov

"Kelishilgan"
SamDU o'quv ishlari bo`yicha
1-prorektor:
_____ prof. A.S.Soleev
"___"_____2023 yil

Samarqand davlat universiteti, 5140100 – Biologiya (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan "Odam anatomiyasi" fani dasturiga.

TAQRIZ

Odam anatomiyasi fanini o'qitishdan maqsad talabalarga Odam organizmi tuzilishi to'g'risida tushuncha berish, turli organlar ularning taraqqiyoti to'g'risida, odam organizmi tuzilishining murakkabligi, mehnatga layoqatliligi, hayvonlar organizmi tuzilishidan tubdan farq qilishi. Ana shu tuzilish, rivojlanish qonuniyatlarini uning evolyusion taraqqiyot qonunlari - filogeneziga (phylon-avlod, genesis-taraqqiyot) taqqoslangan holda o'rganish, organizmi a'zolarining tuzilishi ularni vazifalariga bog'liq holda shaklanib borishini o'rganishdan iborat. Mazkur fan dasturi fanning aynan shu maqsadlaridan kelib chiqqan holda amaldagi DTS talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. O'quv dasturida belgilangan mavzular fanning o'quv va ishchi o'quv rejalarida belgilangan soatlar hajmini to'la qamrab oladi. O'quv dasturining asosiy nazariy qismida ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari va ushbu mavzularning tayanch tushunchalari berilgan. Ma'ruza mavzulari izchil va bir- biri bilan uzviylikda berilgan. Amaliy mashg'ulotlar mavzulari ham mavjud imkoniyatlar asosida tuzilgan. Berilgan mashg'ulotlar talabalar tomonidan to'liq bajarilishi katta amaliy ko'nikma va bilimlar shakllanishiga asos bo'ladi. Fan o'quv dasturining ahamiyatli jihatlaridan biri mustaqil ta'lim mavzulari talabalarni ma'ruza va amaliy mashg'ulot mavzularidan tashqari bilimlar olishga undaydi. Mustaqil ta'limni sifatli amalga oshirishlari uchun kerakli bo'lgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ham dasturdan o'rin olgan.

Umuman olganda "Odam anatomiyasi" fan dasturi mavjud DTS talablari asosida tuzilgan va ishchi o'quv dasturlari uchun asos b'lib hizmat qiladi.

Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand Davlat Universiteti
"Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi"
kafedrasi professori, b.f.d.

Z.I. Izzatullayev

Samarqand davlat universiteti, 60510100 – Biologiya (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan "Odam anatomiyasi" fani dasturiga.

TAQRIZ

Odam anatomiyasi fani-odam tanasining tuzilishi, rivojlanishi, a'zolari va tizimlarining funksiyalarini bir-biriga bog'lab o'rganish. Odam anatomiyasi fan tizimlari bo'yicha etuk ma'lumotlarni berish bilan birga har bir tizimga xos anatomik tuzilishlarini funksiyaga bog'lab o'rgatish. Barcha tizimlari bo'yicha faqat nazariy bilimlar beribgina qolmasdan amaliy darslarda kafedrada mavjud adabiyotlar, atlaslar, mulyaj, skelet va uni suyaklaridan foydalanib amaliyot darslarini ham olib boriladi.

Odam organizmi tuzilishining murakkabligi, mehnatga layoqatliligi, hayvonlar organizmi tuzilishidan tubdan farq qilishi. Ana shu tuzilish, rivojlanish qonuniyatlarini uning evolyusion taraqqiyot qonunlari - filogeneziga (phylon-avlod, genesis-taraqqiyot) taqqoslangan holda o'rganish, organizmi a'zolarining tuzilishi ularni vazifalariga bog'liq holda shaklanib borishini o'rganishdan iborat.

Ma'ruza mavzularida fanning rivojlanish tarixi, predmeti, vazifalari va umumiy parazitologiya bo'limlarini to'la qamrab olgan. Ma'ruza darslarida olingan nazariy bilimlar o'quvchilarning amaliyot darslari uchun asos bo'lib hizmat qilishi ustuvor vazifa sifatida belgilab olingan. Fanning amaliy mashg'ulotlari mavzulari bevosita amaliyot bilan bog'liq holda tuzilgan. Keltirilgan mavzular ma'lum turdagi parazit haqida umumiy ma'lumotlar va profilaktik tadbirlar haqidagi bilimlarni talabalarga berilishi mo'ljallab yozilgan.

Mustaqil ta'lim mavzulari ham talabalarning mustaqil ishlashlarini ko'zda tutilgan holda tuzilgan. Berilgan mavzular bo'yicha ko'proq ma'lumot olishlari uchun asosiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan birga kerakli internet saytlarning berilishi ham maqsadga muvofiq bo'lgan.

Umuman olganda "Odam anatomiyasi" fan dasturi mavjud DTS asosida tuzilgan va barcha talablarga javob beradi.

Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand Davlat Universiteti
Biokimyo instituti "Zoologiya"
kafedrasi dotsenti, **Fundukchiyev.S.E**

BIOKIMYO INSTITUTI